https://gospodarkainnowacje.pl

GOSPODARKA I INNOWACJE

LABORATORIUM WIEDZY Artur Borcuch

Volume: 64 | 2025

Economy and Innovation
ISSN: 2545-0573

For more information contact: editor@gospodarkainnowacje.pl

AHOLINI IJTIMOIY HIMOYALASH TIZIMIDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Rahmonkulova Oksana Alikulovna
dotsent. T.f.f.d (PhD) Qarshi davlat universiteti

Xoliqov Arslonbek Xoliq o'g'li
Qarshi davlat universiteti magistri

ARTICLEINFO.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy himoya, "Ijtimoiy himoya yagona reyestri", "Ijtimoiy karta", Korrupsiya, "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari", Kambag'allikni qisqartirish ,"halollik vaksinasi".

Annotatsiya

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya sohasida qator samarali islohotlar amalga oshirilishiga qaramay, sohada hozirgi kungacha bir qator muhim va dolzarb bo'lgan muammolar mavjud. Ushbu maqolada mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar yoritiladi.

http://www.gospodarkainnowacje.pl/ © 2025 LWAB.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoyalash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va bu sohaga oid qabul qilinayotgan qarorlar tizimni takomillashtrishga qaratilgan bo'lib , ayniqsa aholini davlatdan rozi qilishga qaratilgan bu esa aholi qatlamining davlat siyosatiga ishonchini oshirmoqda .

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi prezidentining sohaga oid gaplari ham bu sohadagi ishlarning tizimli bo'lishiga chaqiriq sifatida ko'rish mumkun.Davlat rahbari bu tizimni tubdan isloh qilish ,ijtimoiy yordamning manzilliligi va natijadorligini ta'minlash zarurligini ta'kidladi.

- *Bu sohada umumiy ishlab bo'lmaydi. Har bir oila va inson taqdiriga alohida, professional yondashish lozim. Ijtimoiy xizmat to'g'ri yo'lga qo'yilsa, ehtiyojmand fuqarolar jamiyatda o'z o'rnini topadi, –* dedi prezident **Shavkat Mirziyoyev**.

Ijtimoiy himoya – keng ma'noda – mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta'minlaydigan va jamiyatda qaror topgan xuquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy choratadbirlar majmui; tor ma'noda – davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta'minlanmagani tufayli yordamga, ko'makka muhtoj fuqarolar to'g'risidagi g'amxo'rligi.[1]

Bu jamiyatda ijtimoiy tenglikni ta'minlash, aholining ijtimoiy ko'makka muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash va kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan chora tadbirlar va mexanizmlar majmuasidir. Ushbu tizimning barqarorligi bevosita aholining turmush darajasi, ijtimoiy hayoti va davlatning rivojlanish bilan bog'liqdir.

Sohaga oid bir qancha muammolarni ko'rib chiqish mumkun:

Birinchidan ijtimoiy himoya tizimida ma'lumotlar bazasining mukammal emasligi ;

[1]https://uz.m.wikipedia.org/wiki/ijtimoiy_himoya

Copyright © 2025 All rights reserved International Journal for Gospodarka i Innowacje This work licensed under a Creative Commons Attribution 4.0

ya'ni Ijtimoiy ko'makka muhtoj shaxslarni aniqlashda yagona va yetarlicha ma'lumotlar yo'qligi .Ba'zida yordamga muhtoj va ko'makka haqli bo'lmagan shaxslarning yordam olishi , haqli bo'lganlar esa chetda qolishi kabi holatlarning mavjud ekanligi. Ammo bu kabi muammolar yechimi ishlab chiqilib bu kabi muammolarning huquqiy asoslari yaratildi. "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi orqali kam ta'minlangan oilalarni aniqlash va ularga ijtimoiy nafaqalar tayinlash bo'yicha elektron shaklda ariza berishni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida qaror ishlab chiqilib tadbiq etildi[2] .Bundan tashqari Qonunchilik palatasi deputati Tohir Polvonov nutqida "Davlatimiz rahbari ijtimiy himoya sohasidagi ishlar natijadorligi va 2025 -yil uchun ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida "Ijtimoiy karta "tizimini joriy etish masalasiga alohida etibor qaratgani bejiz emasligini " aytib o'tdi.[3]

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda mamlakatimizda Prezidentimiz tashabbusi bilan ijtimoiy himoya sohasida tarixiy qadamlar tashlandi. Kuchli ijtimoiy siyosat aholi turmush darajasini yuksaltirish, daromadlarini oshirish, har bir inson davlatning e'tibori va g'amxo'rligidan chetda qolmasligini kafolatlash maqsadlarini izchil ro'yobga chiqarmoqda. Ijtimoiy himoya masalasiga jamiyatda barqarorlik va adolatni ta'minlashning muhim asosi, deb qaralmoqda. Hozirgi kunda har bir ijtimoiy ko'makka muhtoj fuqarolar yillik daromadlari va harajatlari hisoblab chiqilib haqiqiy muhtoj bo'lsagina bu reystrga kiritilmoqda.

Ikkinchidan moliyalashtirish yo'nalishidagi muammolar;

Ijtimoiy himoya sohasiga oid dasturlariga yo'naltirilayotgan mablag'lar ba'zida yetarli emas yoki aniq bir maqsadli yo'naltirilmagan holda sarflanadi. Bu esa tizimda ayrim muammolarni keltrib chiqaradi, yani yagona bir reja asosida harakat qilmaslik va sarflanayotgan mablag'ning aniq hisoblab chiqilmasligi kabi muammolar yuzaga keladi. Bu boradagi muammolarni bartaraf etish uchun O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish tartib-taomillarini takomillashtirish to'g'risidagi farmoni yechim bo'lib xizmat qilmoqda . Bu farmonga asosan 2025-yil 1-apreldan boshlab "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" jamg'armalari orqali tadbirkorlik faoliyatini boshlash va o'zini o'zi band qilishga zarur bo'lgan asbob-uskunalar, mehnat qurollari, urug'lik va ko'chatlar xarid qilish uchun to'lanadigan ssuda va subsidiyalar Kambag'allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg'armasi mablag'lari hisobidan ajratilishi belgilab qo'yildi, bu ham sohadagi muammolarga yechim bo'lib xizmat qilmoqda.[4]

So'nggi yillarda mamlakatimizda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini davlat ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralari bilan qamrab olish, ijtimoiy yordam va xizmatlar ko'rsatishning ijtimoiy adolat mezoniga asoslangan shaffof va raqamlashtirilgan yangi tizimini joriy etish bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Uchinchidan aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi Korrupsion holatlar;

aholiga ijtimoiy ko'mak berishda korrupsion holatlarning sodir etilishi , ijtimoiy yordamlarni adolatli taqsimlashda to'siq bo'lmoqda. Bazi holatlarda yordamlar tanish-bilishchilik hamda qarindosh urug'chilik kabi korrupsiyaga olib boruvchi holatlarning mavjudligi ham tizimdagi asosiy muammolardan biri hisoblanadi . Bu va bu kabi holatlarni oldini olish bo'yicha esa tegishli tashkilotlar tomonidan samarali harakatlar olib borilmoqda , bu kabi holatlarni bartaraf etmay turib biz tizimni adolatli ishlashini taminlashda bir qancha to'siqlarga uchrashimiz mumkun.zero Korrupsiya jamiyat rivojiga urilgan bolta deya qabul qilar ekanmiz, aynan ijtimoiy sohadagi korrupsiyani yo'q qilishga

[2] https://lex.uz/docs/ "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" joriy etish to'g'risida .10.11.2023 -yil

[3] 2024 yil 18 -dekabr Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Mehnat , Sog'liqni saqlash va ijtimoiy masalalar qo'mitasi hamda palataning kambag'allikni qisqartrish borasidagi ishlarning holatini o'rganish bo'yicha ishchi guruh hamkorligida "ijtimoiy himoya sohasidagi ishlar natijadorligi va 2025-yil uchun ustuvor vazifalar ' mavzusida davra suhbati.

[4] "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish tartib-taomillarini takomillashtirish to'g'risida´gi farmoni 30.01.2025-yidagi PF-17 son

Copyright © 2025 All rights reserved International Journal for Gospodarka i Innowacje This work licensed under a Creative Commons Attribution 4.0

alohida etibor qaratishimiz zarur.

Chunki ijtimoiy sohada adolatli ishlash va zarur yordamni o‘z egasiga ko‘rsatish sohada juda katta o’rin egallaydi. Bu borada So‘nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishning huquqiy va institutsional asoslari takomillashtirilib, jamiyatda korrupsiya illatiga nisbatan murosasiz muhitni shakllantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi.

Jumladan, davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy mexanizmlari keng joriy etilib, ularning faoliyatida ochiqlikni ta’minlash va jamoatchilik oldida hisobdorlikni oshirish bo‘yicha tizimli choralar ko‘rildi. Shu bilan birga, aholi va davlat xizmatchilarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, ularga “halollik vaksinasi”ni singdirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish tizimini zamon talablaridan kelib chiqqan holda yangi bosqichga olib chiqish zarurati yuzaga kelmoqda. O‘zbekiston Resoublikasi Prezidentining 21.06.2024 yildagi PQ-228 son “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.[5]

To’rtinchidan aholini ijtimoiy himoyalashda hududlarni o‘zaro tenglik asosida hisobga olish ;

Aholini Ijtimoiy himoya qilish sohasiga oid dasturlarni ishlab chiqishda hududlarning demografik, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlari hisobga olinishi zarur. Hamda davlat bujetidan sohaga yo‘naltirilayotgan mablag‘lar hududlar o‘rtasida aholisi va hududiy imkonyatlardan kelib chiqqan holda taqsimlanishi zarur.

Masalan ba’zi hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, aholining turmush darajasi, bandlik holati va yashash sharoitlari tubdan farq qiladi. Shu sababdan bu sohaga oid har bir qarorda yoki bu sohaga oid yillik rejalarni shakillantrishda hududiy tafovutlarni hisobga olish kerak.Masalan hudud jihatdan katta viloyatlarda ishsizlik darajasi yuqori bo’lishi mumkun, bu esa aholini bandligini taminlash bilan bir qancha muammolarni yuzaga chiqarishi mumkun .Tog‘li va chekka hududlarda yashovchi aholi uchun ijtimoiy yordamlar turini kopaytirish , kommunal xizmatlarga subsidiyalar berish bu muammoning yechimlari sifatida ko‘rsatish mumkun.

2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra O‘zbekistonda doimiy yashovchi aholi soni 36 799 800 kishini tashkil etmoqda, shundan erkaklar soni 18 525 000 kishini, ayollar soni 18 768 500 kishini , qishloq aholisi soni 18 031 300 kishini tashkil etmoqda .Bu haqda prezident huzuridagi Statistika agentligi xabar bermoqda. Aholi soni ko’p hududlar Samarqand viloyati 4 208 500 kishi , Farg‘ona viloyati 4 061 500 kishi , Qashqadaryo viloyati 3 560 600 kishi yetakchilik qilmoqda . Bu o‘rinda ko‘rishimiz mumkunki aholi soni ko‘p viloyatlarda bandlik darajasi aholi soniga qarab yuqori bo‘lishi zarur. O‘zbekiston prezidenti 2025-yil ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirishda hal qiluvchi yil bo‘lishini takidladi .Bu uchun 1,5 mln aholi doimiy ishga joylashtirilib , 2 milliondan ziyod odam biznesga jalb qilinishini va kambag‘allik va ishsizlikdan holi hududga aylantrilishi aytib o‘tildi.[6] Aynan ushbu hududlarda ishsizlik darajasi 2019 yilda Qashqadaryo (9.2 foiz) , Samarqand (9.2 foiz), Farg‘ona (9.2 foiz) ni tashkil etgan.[7] Hozirda 2025-yilga kelib bu ko‘rsatkich 6.8 foizga tushganligini ko‘rishimiz mumkun. Aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi bu kabi muammolar o’z yechimini topmoqda, avvalo respublikada amalga oshirilayotgan sohaga oid qarorlar va islohotlar bu muammolarning hal etilishida va tizimni yanada samarali ishlashida muhim ahamyat kasb etmoqda.

Xulosa

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va rivojlanish

[5]O’zbekiston Resoublikasi Prezidentining 21.06.2024 yildagi PQ-228 son qarori “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”
[6] Https://www.Gazeta.uz 2024.27.01
[7] Https://Darakchi.uz .2019.16.11

Copyright © 2025 All rights reserved International Journal for Gospodarka i Innowacje This work licensed under a Creative Commons Attribution 4.0

yo‘nalishlarini ta’minlovchi asosiy ustun sohalardan biridir. Sohadagi mavjud yechimini kutayotgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf qilish orqali davlat aholining yordamga muhtoj qatlamlarini yanada samarali va tizimli qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Hamda sohani raqamlashtirish, ochiqlikni oshirish va tizimni adolatli ishlashini yo’lga qo’yish orqali ijtimoiy adolatga erishishni o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlaridan biri sifatida ko‘rishimiz mumkun.Tizimdagi muammolarni bartaraf etish yuzasidan bir qancha rejali ishlar amalga oshirilmoqda va bu ishlar samarasini yuqoridagi so‘zlarimizda isbot sifatida ko‘rishingiz mumkun.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/ijtimoiy_himoya
2. https://lex.uz/docs/ “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” joriy etish to‘g‘risida .10.11.2023 -yil
3. 2024 yil 18 -dekabr Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Mehnat , Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy masalalar qo‘mitasi hamda palataning kambag‘allikni qisqartrish borasidagi ishlarning holatini o‘rganish bo‘yicha ishchi guruh hamkorligida “ijtimoiy himoya sohasidagi ishlar natijadorligi va 2025-yil uchun ustuvor vazifalar ‘ mavzusida davra suhbati.
4. “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish tartib-taomillarini takomillashtirish to‘g‘risida´gi farmoni 30.01.2025-yidagi PF-17 son
5. O‘zbekiston Resoublikasi Prezidentining 21.06.2024 yildagi PQ-228 son qarori “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”
6. Https://www.Gazeta.uz 2024.27.01
7. Https://Darakchi.uz .2019.16.11

Copyright © 2025 All rights reserved International Journal for Gospodarka i Innowacje This work licensed under a Creative Commons Attribution 4.0